

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



" TASDIQLAYMAN"

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**

G. Abduraxmanova

" " 2025 y.


**08.00.12 – "Mintaqaviy iqtisodiyot" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura
(PhD)ga kirish imtihoni**

DASTURI

Toshkent–2025

Tayanch doktorantura, doktoranturaga kiruvchilar uchun 08.00.12 “Mintaqaviy iqtisodiyot” ixtisosligi fanidan kirish imtihonlarini o‘tkazish dasturi TDIU Kengashining 2025-yil « 30 » 10 dagi 3 -son qarori bilan tasdiqlangan.

Ushbu dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Mintaqaviy iqtisodiyot” kafedrasining 2025-yil “ 5 ” sentabr dagi 2 -sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri  **E. J. Ergashev**

Tuzuvchilar:

Z.T.Abdalova

– TDIU, “Mintaqaviy iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, geografiya fanlari nomzodi

N.S.Dexkanova

– TDIU, “Mintaqaviy iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Taqrizchilar:

1. B.Tagayev

– O‘zMU, “Mintaqaviy iqtisodiyot va menejment” kafedrasining mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

2. X.Asatullaev

– TDIU, “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

KIRISH

Ma'lumki, milliy iqtisodiyotning hududiy tarkibini takomillashtirish va mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasidagi nomutunosiblikni bartaraf etishdan bosh maqsad hududlarni kompleks rivojlantirish, aholi bandligi oshirish, turmush darajasini yaxshilanish va shu kabi muammolarni yechimiga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, davlat tomonidan olib borilayotgan mintaqaviy siyosat, har bir xududning o'ziga xos tabiiy, demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik shart-sharoitlarni e'tiborga olgan, mintaqalarni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Har qanday mamlakatning va uning mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, milliy iqtisodiyotning moddiy sohasi bo'lgan sanoatning roli va o'рни muhim hisoblanadi. Hozirgi davrda, fan va amaliyotda xududlarni kompleks va mutunosib rivojlanishini ta'minlash maqsadida, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirida ob'ektiv shart-sharoitlarini, omillarini o'rganish va sanoat tarmog'ining shakllanishida xududiy xususiyatlarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Hududiy iqtisodiyotning nazariy va amaliy masalalarni o'rganish, mintaqalarni boshqaruv sohalariga joriy etish zaruriyati 08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot” ixtisosligi bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga bo'lgan ehtiyojni sezilarli oshirmoqda.

Dasturning maqsadi va vazifalari

Mintaqaviy iqtisodiyotni o'qitishdan maqsad – kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib etishadigan doktarantlarga mintaqaviy iqtisodiyotning nazariy va uslubiy asoslari, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish qonuniyatlari, respublika mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish va hududiy dasturlarni ishlab chiqishning uslubiy asoslari haqida bilim berishdan iborat.

Fanning vazifasi – mutaxassislarga mintaqalarda ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi mintaqaviy siyosatining asosiy yo'nalishlarini

ko'rsatish, iqtisodiy rayonlar va ular orasidagi munosabatlarni o'rgatishdan iborat. Shu bilan birga quyidagi ko'nikmalar shakllantiriladi:

- mintaqaviy iqtisodiyotning mohiyati va mazmunini o'rganish;
- mazkur fanni shakllanish davri va bugungi kundagi rivojlanish yo'nalishlarini bilish;
- mintaqalarda ishlab chiqarishni joylashtirish va hududiy tashkil etishning nazariy asoslarini bilish;
- Res'ublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish amaliyoti va bu o'rinda hududiy dasturlarning ahamiyatini yoritib berish;
- mintaqalar rivojlanishini modellashtirish va 'rognozlashtirishning nazariy asoslarini o'rganish;
- O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishga oid ilmiy - uslubiy yondashuvlarini o'rganish.

Yo'nalish bo'yicha malakaviy imtihon topshiruvchilar uchun mo'ljallangan sinov dasturining asosiy maqsadi va vazifasi talabgorlarning mintaqalar iqtisodiyoti bilan bog'liq masalalar bo'yicha nazariy bilimlar shakllantiriladi va amaliy ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan bo'lib, sohadagi muammolar va ularning yechimlarini topish bo'yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab etadi.

**Malakaviy imtihon topshiruvchining bilimiga, tayyorgarligiga va
ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar:**

- mintaqaviy iqtisodiyotning kelib chiqishi va hududiy rivojlanish nazariyasi;
- mintaqalar iqtisodiyotini shakllantirish qonuniyatlari;
- ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining hududiy jihatlarini baholash;
- modellashtirish va prognozlashtirish;
- modernizatsiyalash sharoitida mintaqalarda ishlab chiqarishni

joylashtirishning asosiy omillari va qonuniyatlari;

- mintaqalarda innovatsion ishlab chiqarish nazariyasini o'rganish;
- ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning mohiyatini va shakllarini ochib berish;

- hududiy klasterlarni shakllantirish yo'nalishlarini bilishi;
- iqtisodiy rayonlashtirishning asosiy vazifalarini o'rganish;
- mintaqaviy ixtisoslashuv va uning samaradorligini baholash;
- milliy iqtisodiyotning hududiy muvozanatligini ta'minlashda iqtisodiy rayonlar va erkin iqtisodiy zonalarining o'rnini baholash;

- mintaqalarda byudjet munosabatlari tartibga solish mexanizmini;
- mintaqaning byudjet-soliq tizimi;
- mahalliy byudjetni shakllantirish vazifalarini;
- mintaqalarning moliyaviy ta'minoti;
- mintaqalarning salohiyatini baholash ko'rsatkichlari;
- hududiy investitsiya loyihalarini moliyalashtirish xaqida;
- mintaqalar iqtisodiyotidagi o'zgarishlar, rivojlanish jihatlarini tahliliy baholash: bo'yicha malakaga ega bo'lishi lozim;

- O'zbekiston Respublikasining "Strategiya – 2030" da xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari haqida bo'yicha malakaga ega bo'lishi lozim.

Fanning ilmiy-nazariy mazmuni

"Mintaqaviy iqtisodiyot" fanining mohiyati va vazifalari

"Mintaqaviy iqtisodiyot" fanining predmeti, vazifalari. Fanning tadqiqot ob'ekti va metodlari. Uning shakllanish davri. Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi. Hududiy makonni o'rganish muammolari. O'zbekistonda fanning shakllanishi davri. Mintaqaviy iqtisodiyot fanida joy (location)ga baho berish. Hududiy makon. Mintaqalar rivojlanishi. Ishlab chiqarishni joylashtirishning klassik g'oyalari. Iqtisodiyot tarmoqlarini hududiy tashkil qilishning ilmiy asoslari Mintaqaviy iqtisodiyotda joylashtirish muammolari, uning asosiy omillari va qonuniyatlari,

ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyilari, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning mohiyati va asosiy shakllari. Mintaqada joylashtirish omillarini baholash. Mintaqalarning tabiiy va iqlim sharoitlari. Joylashtirishda A.Lyosh g'oyasi. Joylashtirishda yerdan foydalanish masalalari. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish. Tyunen, Veber, Kristaller nazariyalari. Xududiy o'sishning zamonaviy konsepsiyalari. Pol Krugman nazariyasi. Yangi iqtisodiy geografiya.

Mintaqaviy siyosat

Mintaqaviy siyosatni yuritishning asosiy dastaklari. Rivojlangan mamlakatlarda mintaqaviy siyosatning roli. Mintaqaviy siyosatning asosiy vazifalari va tamoyillari. Jahon mamlakatlarida mintaqaviy siyosatning yurutilishi va uning asosiy dastaklari. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatining pirovard maqsadi. Mintaqaviy siyosat obyektlari. Muommoli mintaqalar. Qoloq mintaqalar. Depressiv mintaqalar. Mintaqaviy siyosatning asosiy metodlari. Mintaqaviy siyosatning zaruriyati. Mintaqaviy siyosatning mohiyati.

Mintaqalarning iqtisodiy salohiyati

Mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyati va uning tasnifi. Iqtisodiy salohiyat va uning tarkibi. Ishlab chiqarish salohiyoti. Mintaqa salohiyatidan foydalanish samadorligi va uning tarkibiy elementlari. Geosiyosiy salohiyot. Ishlab chiqarish salohiyoti. Innovatsion salohiyot. Investitsiya salohiyoti. Demografik salohiyot. Boshqaruv salohiyoti. Mintaqada iqtisodiy o'sish omillari. Respublika hududlarining tabiiy-iqtisodiy salohiyatini baholash metodlari. O'zbekiston hududlarining tabiiy sharoiti va qazilma boyliklariga baho berish. Mintaqa rivojlanishining resurs bazasi va uni shakllantirish masalalari.

Mintaqalarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalari

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasining tarkibiy qismlari. Strategiyani ishlab chiqish maqsadlari va uning tashkiliy tuzulmasi. Mintaqalar strategiyasining bajaralishini baholash va monitoringini tashkil etish. O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish. Strategiyani ishlab chiqish maqsadlari va uning tashkiliy tuzilmasi. Hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishning xorij tajribalari Jahon tajribasida

strategiyalarni ishlab chiqishni tashkil etish va uning vazifalari. Strategiyaning ishlab chiqishning tarkibiy elementlari va asosiy bosqichlari. Strategik tahlil qilish uning vazifalari va tarkibiy tuzilishi. Strategik tahlil qilish, uning vazifalari va tarkibiy tuzilishi. SWOT – tahlili. Mintaqalarni rivojlantirishda strategik maqsadni ishlab chiqish. Mintaqalar strategiyasining bajarilishini baholash va monitoringini tashkil etish. O‘zbekiston Respublikasining “Strategiya-2030” da xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari.

Mintaqalarda byudjet tizimi va uning asosiy vazifalari

Mintaqalarda byudjet munosabatlarining mohiyati va uni tartibga solish mexanizmi. Mintaqaning byudjet-soliq tizimi. Mahalliy byudjet tizimining vazifalari va uni shakllantirish tamoyillari. Mintaqa rivojlanishida mahalliy byudjetning roli. Mintaqada moliya tizimi va uning vazifalari. Mintaqaning moliyaviy tahminotining mazmuni va uni baholash ko‘rsatkichlari. Mintaqaning investitsion-innovatsion salohiyati va moliyaviy imkoniyatlari. Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarishning moliyaviy-iqtisodiy asoslari. Mahalliy moliya tushunchasining mohiyati.

Hududiy rivojlanishda muammoli mintaqalar va ularni tartibga solish zaruriyati

Mintaqalar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning metodlari va asosiy vositalari. Mintaqada iqtisodiy islohotlarni olib borishni monitoring qilish. Mintaqaviy boshqaruv va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarni hal etish metodlari. Mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini boshqarish instrumentlari. Mintaqaviy marketing. Mintaqaviy rivojlanishni strategik rejalashtirish nazariyasi, uning mohiyati va bosqichlari. Strategik rejalashtirishning xususiyatlari, obyekti va tamoyillari. Hududiy dasturlar, ularning tasniflanishi va tarkibiy tuzilishi. O‘zbekistonda hududiy dasturlarni ishlab chiqish amaliyoti. Mintaqaviy diagnostika va uning mohiyati Mintaqaviy diagnostika. Mintaqaviy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari, mintaqa iqtisodiyotini tahlil qilishning statistik bazasi va asosiy indikatorlari. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash va tahlil qilishning kontse‘tual asoslari. Hududlarning iqtisodiy reytingini baholash

uslubiyoti. Mintaqaning ijtimoiy rivojlanish darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar. Mintaqaviy differentsiatsiya ko'rsatkichlari. Mintaqaviy takror ishlab chiqarish jarayoni va uni tahlil qilish metodlari. O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi. Mintaqaviy rivojlanishni 'rognozlashtirish, uning mazmuni va maqsadi. 'rognozlashtirishning kontse'tual asoslari va U.Rostou nazariyasi. Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini 'rognozlashtirishning uslubiy yondashuvlari. 'rognozlashtirishning axborot-statistik bazasi. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish masalalari.

Hududiy mehnat tahsimoti va iqtisodiy rayonlar tasnifi

Iqtisodiy rayonlashtirish nazariyasi, uni tashkil etishning asosiy tamoyillari va vazifalari. Hududiy mehnat taqsimoti, uning bosqichlari. Mintaqaviy ixtisoslashuv va uning samaradorligi, mintaqaning tarmoq ixtisoslashuvini aniqlash metodlari. Iqtisodiy rayonlar tushunchasi. O'zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish. Mamlakatning mahmuriy– hududiy tuzilishi va iqtisodiy rayonlari 12 o'rtasidagi aloqadorlik. Milliy iqtisodiyotning hududiy tarkibi va iqtisodiy rayonlar. Mintaqaviy iqtisodiyotda 'rognozlashtirish masalalari mehnat tahsimoti va iqtisodiy rayonlar tasnifi – -Toshkent iqtisodiy mintaqasi; – Farg'ona iqtisodiy mintaqasi; – Mirzacho'l iqtisodiy mintaqasi; – Markaziy iqtisodiy mintaqasi; – Janubiy iqtisodiy mintaqasi; – Quyi Amudaryo iqtisodiy mintaqasi. Iqtisodiy rayonlashtirishning hozirgi davrdagi metodologik jihatlari va ahamiyati. Iqtisodiy rayonlarga tavsif.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 y. PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Edgar M. Hoover and Frank Giarratani "An Introduction to Regional Economics".
3. Martin Armstrong, Jim Taylor Regional Economics and Policy 3rd Edition. Pub: 2013.
4. Philip McCann Urban and Regional Economics. Pub:
5. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi / O'zMU. – T.; MUMTOZ SO'Z, 2010. 348

6. Soliyev Ahmedov E va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2003. – 304 b.
7. Susumu Egashiru. Globalism and Regional Ekonomy. Pub: 2013
8. Yakubov I.O. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 – 280 bet
9. Abdalova Z.T. Regionalnaya ekonomika: Uchebnik: T.: LAVITA PRINT. 2024. – 358 s.
10. Abdullaev A.M., Islomov A.A. Regionalnaya ekonomika. Uchebnik. / Pod red. Akad. S.S.Gulyamova. – T.: Izd. TGEU, 2011. – 376 s.
11. Andreev A.V., Borisova L.M., Pluchevskaya E.V. Osnovy regionalnoy ekonomiki.-M:INFRA-M,2012. – 336 str.
12. Berkinov B.B. Institutsional iqtisodiyot: Darslik. 3-nashr, qayta ishlangan. – T.: Iqtisodiyot, 2018. – 256 b.
13. Berkinov B.B., Asqarova M.T., Abduraximova S. O'zbekistonni rivojlanish strategiyasi: O'quv qo'llanma. – T.: 2019.–78 bet.
14. Granberg A.G. Osnovy regionalnoy ekonomiki. — M.: GU VShE, 2000. – S. 52. – 495 s. – ISBN 5-7598-0074-4.
15. Kodirov A.M., Asqarova M.T., Axmadieva A.T., Shatoxina S.Yu. Regionalnaya ekonomika. Uchebnik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyoti”. 2021. – 336 c.
16. Kurbanov Sh.B., Fedarko V.N. Geografiya Uzbekistana (Chast II. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya Uzbekistana). Uchebnik.Tashkent: Yangi Chirchik prints. – 2024.
17. Lappo G.M. Geografiya gorodov s osnovami gradostroitelstva. – M.: MGU. 1989. – 182 s.
18. Nazarov Sh. Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv. Monografiya. – T.: «Renessans» nashriyoti, 2021. – 23 b.
19. Salimov B.T., Salimov B.B. “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy asoslarini takomillashtirish”. Monografiya – T.: Iqtisodiyot, 2020.

20. Soliev A. “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” T., 2014.
21. www.gov.uz
22. www.lex.uz
23. www.stat.uz
24. www.sharh.uz
25. www.uza.uz
26. www.mfer.uz